

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING RIVOJLANTIRISH USULLARI

Rahmatova Barnogul Karimjonovna

Buxoro muhandislik texnologiya instituti erkin tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10004255>

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir erkin yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini ko'zda tutadi. Qolaversa, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini muntazam oshirib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni qidirib topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay olishni talab etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda aniq namoyon bo'ladi:

- murakkab vaziyatlarda;
- aniq bo'lmagan vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga qarama-qarshi ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'lishda.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi:

- Maxsus (yoki kasbiy) kompetentlik
 - Texnologik kompetentlik
 - Ektremal kompetentlik
 - Psixologik,
 - metodik, informatsion,
 - kreativ, innovatsion, kommunikativ
- va boshqa kompetentlik

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga ega bo'la olish, kasbiy jarayonda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal etish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish hisoblanib, ushbu kompetentlik asosida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik namoyon bo'ladi.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini ko'tarib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini aks ettirish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan yetakchi texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalarni qo'llay olish.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelgand vaqtda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq. Manbalardan birida "qobiliyat" tushunchasi shunday izohlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatdir.

Qobiliyatli pedagoglarda quyidagi noyob qobiliyatlar ham namoyon bo'ladi:

- bir vaqtning o'zida bir qancha faoliyatni bajara olish (eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.);
- atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqea-hodisani birdek qabul qilish (bir talabanning ma'ruzasini eshitgani holda, boshqa talabalarning faoliyatlarini kuzata olish);
- o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo'lsada) mohiyatini bilishga intilish, haddan ortiq ko'p savollarga javob topishga intilish);
- miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt "dam oladi", bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobiliyatli pedagoglarga xos bo'lmagan xususiyatdir);
- nutqi va tasavvurining boyligi (qobiliyatli o'qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda tasavvur (fantaziya qilish) qobiliyati benihoya kuchli);
- kuchli xotira (yirik hajmdagi matnni, jumladan: dostonlarni bir marta o'qish bilan to'laligicha yodlab olib, uni so'zma-so'z qayta hikoya qilib bera olish qobiliyati)ga egalik. Zamonaviy sharoitda o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi, o'z ustida muttasil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o'zlashtirishga harakat qilishi, o'quv axborotlarini talabalarga qiziqarli tarzda yetkazib berish maqadida mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda.

Ta'lim jarayonida tom ma'noda oquvchilarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni tizimli tarzda yetkazib berishi uchun bugungi kun o'qituvchisi, axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o'quvchilarga unumli, qiziqarli tarzda yetkazib berishni bilishi darkor. Bu esa o'qituvchining kasbiy kompetentlik jihatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishini zaruriyat sifatida kun tartibidagi masala darajasiga ko'tarmoqda.

References:

1. Семина Е.А. (2010). Компетентностная модель выпускника педагогического вуза - будущего учителя математики. Альманах современной науки и образования. - № 5 (36). - С. 133-135.
2. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Azamat Sunnatula Murtazoev by son, & Oybek daughter Zarina Latipova. (2022). From the use of digital technologies in the process of didactic education options . World scientific research journal, 4(2), 34– 40.
4. Муртазоев А.С. дидактические возможности использования цифровых технологий в образовательном процессе //international conferences. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 54-58.
5. Xayrulla D., Saidjon U., Azamat M. Development of lighting control software for "smart class" //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-6 (86). – С. 18-21.
6. Sunnatula o'gli M.A. va. b. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari //World scientific research journal. – 2022. – Т. 4. – №. 2. – С. 28-33.
7. Yuldoshev, S., Savriev, S., Murtazoyev, A., & Khojiev, S. (2022). Numerical simulation of three-dimensional turbulent jets of reacting gases. Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences, 2(6), 73-82.